

Date: 3rd June-2026

KONSTITUTSIYA- BAXTIMIZ QOMUSIMIZ, BIZNING HIMOYACHIMIZDIR.

Taqrizchi: **Shomanasurova Gulsanam Muxametjon qizi**

Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumani

142- sonli AFCHO`SMUM huquq fani o`qituvchisi.

Tuzuvchi: Oygul Abdisalomova Farhodbekovna

Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumani

142- sonli AFCHO`SMUM 9 – “D” sinf o`quvchisi

Annontatsiya: Ushbu maqolada Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yaratilishi, undagi o'zgartirish va qo'shimchalar va ularni davlatimiz hayotida tutayotgan o'rni borasida so'z borgan. Amaldagi qonunchiligimizdagi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida qilinayotgan ishlar atroflicha muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, komissiya, mafkura, referendum, prezident saylovi, norma, miranda qoidasi, xabeas korpus, davlat organi, demokratiya, ijtimoiy davlat dir.

Annotation: This article talks about the creation of the new version of our Constitution, its amendments and additions, and their role in the life of our country. The work being done on the protection of human rights and freedoms under our current legislation was discussed in detail. Key words: Constitution, commission, ideology, referendum, presidential election, norm, Miranda rule, habeas corpus, state body, democracy, social state.

Аннотация: В данной статье рассказывается о создании новой редакции нашей Конституции, ее изменениях и дополнениях, их роли в жизни нашей страны. Подробно обсуждалась работа, проводимая по защите прав и свобод человека в соответствии с нашим действующим законодательством.

Ключевые слова: Конституция, комиссия, идеология, референдум, президентские выборы, норма, правление Миранды, хабеас корпус, государственный орган, демократия, социальное государство.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyat taraqqiyotining huquqiy kafolati, Vatanimiz mustaqilligining yorqin ramzidir. Asosiy qonun mamlakatimizda har bir fuqaroning huquqlarini ta'minlash, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda, bu boradagi ishlar izchil rivojlanishida mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. jamoat munosabatlari va fuqarolar, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar vektorini belgilaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi kuni har yili 8 dekabr kuni nishonlanadi. 1992-yilning aynan shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida mamlakatimizning Asosiy qonuni bir ovozdan qabul qilingan. Shu bilan birga, davlat rahbari "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni milliy bayram deb e'lon



Date: 3rd June-2026

qilish to'g'risida"gi qonunlarni imzoladi. Mamlakatimiz Asosiy qonuni qabul qilingan kun O'zbekistonda umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlandi. Yangi Konstitutsiyaviy qonun 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi referendumini yakunlari rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi mamlakatimiz siyosiy-huquqiy hayotida muhim voqea bo'ldi. Konstitutsiyaviy hujjatga kiritilgan o'zgartishlarni tahlil qilish huquqiy va siyosiy islohotlarning yangi davrida O'zbekiston fuqarolari uchun ochilgan istiqbollarni yanada chuqurroq anglash va amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasini yangilash jarayoni asosiy qoidalarni chuqur tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish bilan birga olib borildi, bu esa mazkur hujjatni zamon ruhini yanada aks ettirib, fuqarolar manfaatlariga moslashtirdi. Demokratiyani mustahkamlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani o'zgarishlarning muhim elementiga aylandi.

Demokratik taraqqiyot yo'lidagi muhim qadamlardan biri bu fuqarolik birlashmalari, siyosiy partiyalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari kabi jamoat institutlarining faolligini oshirishdir. O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda ularning davlat siyosatini shakllantirish va davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishdagi ishtiroki muhimligi ta'kidlangan.

Qonun oldida tenglik, ozchiliklar huquqlarini (etnik, diniy, ijtimoiy) himoya qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kafolatlari tamoyillari yangilangan Konstitutsiyaning muhim elementlari bo'ldi. O'zgarishlarning ushbu yo'nalishi davlatning har bir fuqaro o'zini himoyalangan va hurmatli his qiladigan qulay ijtimoiy muhit uchun sharoit yaratish istagidan dalolat beradi.

Bunday o'zgarishlarning kiritilishi mamlakatning o'z institutlarini takomillashtirish va qonun ustuvorligi tamoyillarini mustahkamlashga doimiy intilishidan dalolat beradi. Yangi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari asosiy qadriyat sifatida e'tirof etilgan.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar, ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ro'y berayotgan barcha o'zgarish va yangilanishlar asosi, milliy qonunchiligimiz poydevori bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon hamjamiyatida zamonaviy demokratik qonunchilik namunasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda davlatni jamiyatga, xalqqa xizmat qiluvchi institutga aylantirish, uning faoliyatini qonunlarga tayanib qurishga qattiq kirishilgan, desak xato bo'lmaydi. Fuqaro – jamiyat – davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona va adolatli huquqiy yechimi Konstitutsiyadir.

Konstitutsiya (lotincha: constitutio — “tuzilish”, “tuzuk”) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari,



Date: 3rd June-2026

shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi yaratilish jarayonida qaysidir davlatdan ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olinmaganligini ham inobatga olish kerak. O‘zbekiston Konstitutsiyasi eng taraqqiy etgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan.

Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston –Prezidentlik boshqaruv shaklidagi suveren demokratik respublika hisoblanadi. Konstitutsiyada davlatni, jamiyatni rivojlantirishning demokratik omillari belgilab berilgan bo‘lib, unda Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan. 2022 yil 20-may kun Parlament palatalari kengashlarining qo‘shma qarori bilan Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuzilgandi. Unga eski tahrirdagi Konstitutsiyani ishlab chiqishda qatnashgan,

Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari Akmal Saidov raislik qildi. U amaldagi (1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan) Konstitutsiyani ishlab chiqish bo‘yicha (birinchi prezident Islom Karimov raislik qilgan) komissiya tarkibida bo‘lgan. Komissiya «jamiyat — islohotlar tashabbuskori» g‘oyasi asosida ish olib bordi. Komissiya tarkibiga shuningdek, deputatlar, senatorlar, O‘zbekistonning barcha hududlaridan vakillar, fuqarolik jamiyati institutlari, huquqshunoslar, siyosatshunoslar va boshqa mutaxassislar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 14-marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

- 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi 1-qismidagi “150 nafar deputatdan” degan so‘zlar “deputatlardan” degan so‘z bilan almashtirildi;

- 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko‘ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan;

- 2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;

- 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77- moddasi birinchi qismiga o‘zgartirish kiritilgan;

- 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan;

- 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 90- moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;

- 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 32, 78. 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan;

- 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan;

- 2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 93, 108 va 109-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan;

- 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan;



Date: 3rd June-2026

- 2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan soʻzlar “raisni (oqsoqolni)” degan soʻzlar bilan almashtirilgan;

- 2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalardagi “Milliy” degan soʻz “Davlat” degan soʻz bilan almashtirilgan;

- 2019-yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga oʻzgartirishlar kiritilgan;

- 2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga oʻzgartirishlar kiritildi. Shu paygacha koʻplab oʻzgarishlar kiritgan desak muboligʻa boʻlmaydi.

Taʼlim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, oʻqituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega boʻladi. Jumladan, fuqarolarning oliy taʼlim muassasalarida davlat granti hisobidan oʻqish huquqi qatʼiy belgilab qoʻyildi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlangʻich kasb-hunarga oʻqitilishi ham belgilandi. Konstitutsiyada davlatning oʻqituvchilar shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan oʻsishi toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilish majburiyati qayd etildi. Oliy taʼlim tashkilotlariga akademik erkinlik, oʻzini oʻzi boshqarish, tadqiqotlar oʻtkazish va oʻqitish erkinligi huquqi taqdim etildi.

Bundan tashqari, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Yaʼni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bogʻliq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart.

Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yoʻl qoʻymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro eʼtirof etilgan “Xabeaskorpus” institutini qoʻllanish koʻlami yanada kengaydi.

Shaxsni ushlab chogʻida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga oʻziga qarshi koʻrsatma bermaslik (xalqaro eʼtirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi. Har kimning yozishmalari, telefon orqali soʻzlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlarini sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv oʻtkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yoʻl qoʻyilishi belgilab qoʻyildi.

Jumladan ularga mana shularga rioya qilish belgilab berildi.

- davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini taʼminlaydi;

- davlat yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ragʻbatlantiradi;

- davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

- davlat yoshlarning taʼlim olishga, sogʻligʻini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlike va dam olishga boʻlgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;



Date: 3rd June-2026

– davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalariga oid belgilangan muhim qoidalar:

- davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydi;
- davlat ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi;
- ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi;
- ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan sanadan e‘tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiya qabul qilinishi barobarida mustaqillikning huquqiy tamal toshi o‘rnatilgan.

2023 yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunga asosan 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi, uning yangi tahriri tasdiqlandi. Konstitutsiyaviy qonun referendum yakunlari O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e‘lon qilingan kundan e‘tiboran 2023 yil 1 mayda kuchga kirdi. Konstitutsiya normalari tegishli qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat‘iy nazar to‘g‘ridin-to‘g‘ri amal qiladi.

Bugungi kunda “**INSON QADRI UCHUN**” tamoyili amalda ro'yobga chiqishi, har bir fuqaro kundalik hayotidan rozi bo‘lib yashashida amaldagi barcha qonunlar va boshqa hujjatlar uchun asos bo‘luvchi konstitutsiyaviy normalarning takomillashtirilishi hamda ularning hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va to‘liq tadbiq etilishi muhim amaliy ahamiyatga ega.



Xulosa

Ushbu maqolani yozishdan maqsad O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qonunlarda bir xilda amal qilishini odamlarni huquq ekinliklarini bir xilda himoya qilinishi kerak ligini ko'rastirish desak mubolig'a bo'lmaydi. Yani insonga etibor hammda g'amxolik davlat va jamiyatning eng asosi burchi ekani konstitutsiyaviy norma darajasida mustakam lanmoqda. Shuningdek loyihada aholi salomatligini asrash bilan bog'iq norma 4 barobar ko'paygan.

Bu esa aholini salomatligini ayollar ekaklar yosh bollalar qonun oldida himoya qilishi turli yuqumli kasaliklardan himoya qilinishi kerag ligi bergilab berilgan desak muboliga bo'lmaydi. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham yoshlarga oid qator normalar o'z ifodasini topdi. Alohida bir bobning oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangani yurtimizda yoshlar huquqlarini himoya qilishga yuqori darajada e'tibor qaratilayotganining yorqin isbotidir. Konstitutsiyamizda o'z aksini topgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi normalar kelajak egalari bo'lgan yosh avlod uchun katta imkoniyatlar yaratadi, albatta.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg'usini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o'z haq huquqini biladigan va qonunqoidalarga og'ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

Jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanganligi yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, maqsadlarni boshqarishdagi ishtiroki va mas'uliyati, yangiliklarga daxldorlik tuyg'usining o'zgarishi jamiyat, huquqiy davlat ravnaqi uchun qarorlar qabul qilish jarayonida ularning faollik darajasini belgilaydi. Jamiyatda huquqiy ongni rivojlantirishda, huquqiy normalarni qabul qilishda huquqiy mafkura asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki huquqiy mafkurajamiyatdagi huquqiy ustqartmaning mavjudligini, talabga javob berishini, huquqiy normalarning kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustahkamlashga va rivojlantirishga katta yordam beradi. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir.

Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokshilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatlihal etilishin ta'minlaydi. Huquqiy savodxonlikning belgilaridan biri bu - huquqiy targ'ibotdir. Huquqiy targ'ibot va



Date: 3rd June-2026

fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning zamonaviy va ta'sirchan uslublarini joriy qilish, ularga qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar mazmun – mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodxonligini yaxshilash bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

To'g'risini aytganda, huquqiy ong, huquqiy madaniyat haqida gap ketganda ko'pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan boxabarlik darajasi tushuniladi. Aslida bu juda keng tushuncha bo'lib, yuqorida sanab o'tganimiz davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchta muhim omilni ham o'z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyati yuksak inson qonunlarga itoatkor bo'ladi, hamisha unga bo'ysunadi va qonunlarga hurmat bilan qaraydi. Bunday insonlar qonunlarda belgilangan qoidalarga zid xatti-harakat qilmaydi, aksincha boshqalarni ham shunga da'vat etadi. Ijtimoiy-siyosiy faol fuqaro jamiyatda ro'y berayotgan voqea hodisalarga ongli munosabatda bo'lib, islohotlarga daxldorligini sezib, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilib yashaydi. Eng muhimi, u mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shishga harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent.: - "Adolat", 2023. - 128 bet.
2. Sh.A. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. – 109-bet.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 bet.
4. Sh.A. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. – 116-bet.
5. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). Yangi O 'zbekiston Orifa Ayollari Va G 'Arb Ayollarining Jamiyatdagi Mavqeyi Va Ularning Huquqlari. In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
6. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ulmuhammad f.d., professor H. Boboyev. Darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 232 bet.
7. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. "Yuridik adabiyotlar publish", Toshkent,

